



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

**2020-yil. 12-sont.**

### Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

### Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV  
Dilshod KENJAYEV  
Maqsudxon YO'L DOSHEV  
Qozoqboy YO'L DOSHEV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Nargiza RAHMUNQULOVA  
Yorqinjon ODILOV  
Mamatqul JO'RAYEV  
Nasirullo MIRKURBANOV  
Jabbor ESHONQULOV  
Valijon QODIROV  
Nilufar NAMOZOVA  
Lutfullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinosbasi)

### Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

### Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA  
Nigora URALOVA  
EMMA TOROSYAN

#### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10,  
(71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.

e-mail: til\_adabiyot@mail.uz  
vеб-сайт: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalda ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyyat ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-muhazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifiga qaytarilmaydi.

Bosmaxona 2020.15.12. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84<sup>1/8</sup>. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturası. 10, 11 kegl. "PRINT RABEL" matbaa korxonasiya chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Olmazor tum., O'rozboev ko'chasi, 35- uy. Buyurtma №:27 Adadi 2800 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqa boshlagan

# TIL VA ADABIYOT

## TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ  
LANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

### MUNDARIJA

#### DOLZARB MAVZU

Elyor XONNAZAROV. Ona tili ta'limga yangicha yondashuv zarurati ..... 3

#### METODIK TAVSIYA

Dilbar NORMURADOVA. PISA – 2021 tadqiqotlarida o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish ..... 4  
Mohigul FOZILOVA. Said Ahmadning "Qoplol" hikoyasini o'qitishda blum taksonomiyasidan foydalananish ..... 6  
Abdumurod NOMOZOV. Qiyoysi va tahliliy yondashuv – bilim olishga yangicha munosabat ..... 8

#### DARS – MUQADDAS

Hilola XUDOYMURODOVA. Ona tili fanini o'qitishda ta'limi o'yinlardan foydalanan ..... 11  
Xurshida HOSHIMOVA. Sintaksida niima o'rganiladi? ..... 12  
Mohidil NIZOMOVA. G'afur G'ulom hayoti va ijodi. Uning "Sog'inish" she'ri bilan tanishish ..... 14  
Barno ABDURAHMONOVA. O'quvchilarga badiiy tasvir vositalarini o'rgatish usullari ..... 16  
Saodat KAMBAROVA. Muammoli tahlil – fikrashga o'rgatish omili sifatida ..... 18

#### TAHLIL

Rahimboy JUMANIYOZOV. Suv va so'z saxovati ..... 20  
Doniyor YULDASHEV. O'zbek tili va adabiyyoti ta'limida atoqli otlar antroposentrik talqinidan foydalanan ..... 22  
Munira XUDOYOROVA. Navoiy qit'alari badiiyati ..... 24  
Vaziraxon AHMEDOVA. Erkin A'zam dramalarda obyevtning plastik obraz ..... 25  
Bashorat JAMILOVA, Shahnoza NURIDDINNOVA. O'zbek bolalar adabiyyotida badiiy tafakkur yangilanishining tadriji ..... 27  
Azimjon DAVRONOV. Tohir Malik ijodida uslubiy o'ziga xoslik ..... 30  
Mahliyo UMAROVA. Adabiyyotshunoslikda ijodkor shaxsi tushunchasi ..... 31

#### TADQIQOTLAR

Nilufar ALIBOYEVA. O'zbek tilida tasviriy va taglidiy ma'no hamda ularning engliz tilida berilishi ..... 33  
G.SAFAROVA. Evfemizmlarning sotsial xoslanishini tadqiq etish omillari ..... 35  
Davronbek ORIPOV. "O'g'uznoma" va "Dada qo'rqud": fikr va qarashlar nomutanosibligi ..... 37  
Dilafruz MUQIMOVA. Kamol Yo'jandiying g'azal janri rivojlanishidagi hissasi ..... 39  
Maxfirat QURBONALIYEVA. Movarounnahr tazkiraniwaslik tarixiga bina nazar ..... 42  
Yulduz NUROVA. Etnolingvistika va etnologiya munosabati ..... 44

#### KICHIK TADQIQOT

Go'zal XIMMATOVA. Qo'chqor Norqobil nasrining badiiy xususiyatlari ..... 46  
Nigora KENJABOYEVA. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga qo'yilgan davlat talablarining zaruriyatni ..... 47

#### ЛУЧШИЙ УЧИТЕЛЬ-ФИЛОЛОГ - 2020

Marvar SHAFAUTDINOVA. Chitatel'skiy dnevnik ..... 49  
Yulina TINYKOVA. Motiv ekspakaja i dorogi v zhizni i tvorchestve A.C.Puszhina ..... 53  
Nasiba AHMEDOVA. Biografiya V.G. Korolenko. Ocherk «Ogon'ki» ..... 55  
Sajera BOZOROVA. Osnovnye metody obucheniya v pedagogicheskoy praktike ..... 56  
Gulolla ABDULLAева. Rечевые игры на уроках русского языка в начальных классах ..... 57  
Honibibi DUSMATOVA. Razrabotka kruzhkovogo zanятия «Puteshhestvie po korolevstvu «Russkij jazyk» ..... 59  
Farigit GABDULJAKOV, Rasima GABDULJAKOVA. Preregodavaniye russkogo jazyka: ne pora li perejiti k obucheniyu? ..... 60

#### ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Shaxnosa XOLMATOVA. Primenenie uchebnykh videomaterialov pri obucheniyu russkому jazyku v ekonomicheskom vuzye ..... 63

Feruzza XUDAYIKULOVA. Slognopodchinenyye predlozheniya s pridatochnymi opredelitel'nymi ..... 64  
Malika ARIPOVA. Efektivnost' primeneniya metoda kolleborativnogo proektirovaniya na zanятияx v pedagogicheskix vuzax ..... 67

#### ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Abduinazor JURAEV. Informatsionnye tekhnologii pri obucheniyu razgovornoy rечи ..... 69  
Sevara SULTANOVA, Gulychexra DAVLYATOVA. Izuchenie leksicheskix variantov na modul'noy osnovye ..... 70

#### ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Nikolay ILYIN. Lubovь, smert' i svoboda v poezhiskom tvorchestve Xosiyat Rustamovoy ..... 73  
Agata OSIPova. Ispovedal'nost' kak izobrazhenie samorefleksii geroya ..... 75

#### НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Fakhriddin ABDURAHMANOV. Leksiko-semanticheskaya klassifikatsiya trehaktantnykh glagолов v sovremennom russkom jazyke ..... 77

#### ПРОБЛЕМЫ. ПОИСКИ. РЕШЕНИЯ

Muxiba ARABOVA. Innovatsionnaya deyatel'nost' uchitelya vyschey shkoly ..... 80

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsya etilgan ilmiy nashrdir.

qo'l harakatlari ifodasi, imo-ishoralari hamda keskin qiliqlari orqali ko'rsatiladi. Shubhasiz, E.A'zam bunday tafsilotlarni berish orqali bir jihatdan, sahnayiylikni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan qahramon xarakterini ichki va tashqi harakat uyg'unligi jarayonida ko'rsatishga erishadi.

Guvohi bo'lganimizdek, kinorivoyatda umrining bolalik ("Orolbola"), o'smirlilik ("Oroltoy"), yigitlik ("Orolboy") damlalari ortda qoldirib, endilikda hayotining keksalik bosqichiga qadam qo'ygan shaxs ("Orol bobo") hayoti tasvirlangan. Asl ismi unitilib ketgan, qadrdon dengizidan ayrılgan baliqchi Orol bobo sevimli qayig'ini uyining tomiga chiqarib, e'zozlab keladi. Uning o'z shogirdlari bilan birligalikda yangi qayiqlar yasab, yaxshi odamlarning tomlariga o'rnatishti bilan bog'liq tafsilotlarda majoziy talqin bilan bir qatorda, qahramon tabiatidagi devonavor orzular ham bo'y ko'rsatadi. Aslida, asarning teatr sahnasiga mo'ljallangan varianti "Tango qayiq yoxud devonanening orzusi" tarzida nomlanganida aynan shu jihat nazarda tutilgan edi.

Anglashiladiki, Orol bobo zohiran devonasifat cholday tuyulsa ham, aslida u teran ixlos va qanoat kishisi. Shuning uchun ham u Orol dengizining qurishini "Ichiga shayton oralagan bandalar Xudoning g'azabini qo'zg'agani" bilan izohlaydi. O'g'lining "da'vat"lariga ko'nib, ko'ch-ko'ronini orqalab shaharga ketishni ota-bobolari va jufti haloli xoki turob bo'lgan aziz maskan hamda bir umrlik qadrdon eshkagi-yu qayig'iga xiyonat deb biladi. O'zi yasagan qayiqlarni imon-e'tiqodli, halol va pok kishilarning tomlariga o'rnatishtan charchamaydi. Chunki tom boshidagi qayiqlar boboning osmondan yomg'ir, dengizdan suv so'rash bilan bog'liq iltijolarining moddiy ramzlaridir.

Albatta, Orol boboning xatti-harakatlari o'g'li Qalimbet, qizi Gulzira va uning dugonasi Rohat Sobirovna, O'tagan singari har narsadan iqtisodiy manfaat izlovchi, ulug' maqsadlardan mosuvo kimsalarga "devona"lik bo'lib tuyuladi. Otasining "qiliqlari"ni savdoyilik deb hisoblagan Gulzira o'z padari buzrukvorini jinnixonaga tiqishgacha borib yetadi. Ta'kidlash o'rinniki, cholning bu maskanga yotqizilishi va yaxshi kishilar ko'magida sirli tarzda qutulishi bilan bog'liq o'rinnlarda ertakona bayon va detektiv talqinlar ham ko'zga tashlanadi. Bot-bot kadr ortidan sehrli ovoz eshitilib turadi. Bu ovoz Orol boboga otameros baliqchilik kasbi, o'z kechmishi, xususan, sevgilisi Oyukumush bilan bog'liq yorqin xotiralar va butun qilmish-qidirmishlarini eslatib turadi. Afsuski, dramaturg "ovozi" detalini bosh qahramon qalb nidosi darajasida yuksaltira olmaydi.

Asarning xotima qismida enaqayiqni e'zozlagan oq qalpoqli Orol bobo va to'rt navqiron o'g'lon (Jumaboy, Tilovbergan, Genjamurod, Amet) tashnalik azobidan qiyinalishadi. Albatta, E.A'zam bu tashnalikka ramziy ma'no yuklashga intilgan. Bu hol qahramonlar fikrini dengiz haqidagi aziz xotiralar, sog'inch, ummonga yetish orzusi va muttasil olg'a intilish hissi tark etmaganida namoyon bo'ladi. Muhibimi, maqsadi aniq bo'lgan qahramonlar bir nafas harakatdan to'xtashmaydi.

Xulosa qilib aytganda, E.A'zamning "Tango qayiq" dramasida obyektning plastik obrazi yaratilgan bo'lib, asarda mujassam bosh g'oya uning ramziy-majoziy mazmuni, axloqiy-falsafiy va didaktik mohiyatini belgilab beradi.

<sup>1</sup>Erkin A'zam. Kinoga qanday kelib qolganim. Tango qayiq. Kinoqissalar – Toshkent: Sharq NMAK, 2017. 5-bet. (Ushbu manbadan olingan keyingi misollar qavs ichida ko'rsatiladi.)

<sup>2</sup>Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ilyon. – Toshkent: Sharq NMAK, 2006. 84-bet.

Bashorat JAMILOVA,

Buxoro davlat universiteti dotsenti;

Shahnoza NURIDDINOVA,

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

## O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA BADIY TAFAKKUR YANGILANISHINING TADRIJI

Hozirgi adabiy jarayonda bir asrlik tarixga ega milliy bolalar adabiyotimiz ham o'ziga xos shiddat bilan odimlayotgani uning yosh avlod tafakkuriga mos taraqqiy etib borayotganidan dalolat.

Istiqlol davri nasri va nazmidagi shakliy, janriy rang-baranglik, mavzu dolzarbligi, mazmundorlik ko'lamni haqida so'z borganda Anvar Obidjon ijodini alohida tilga olish joiz. U har qanday mavzuni yoritishda bola qalbiga mos ohang, davr ruhini aks ettira oladigan va ayni paytda g'oyat qiziqarli uslub, o'ziga xos jilo bera ol-

gan shoir, adib va dramaturgdir. Ayniqsa, zamon bilan hamnafaslik, jahon adabiyoti an'analarini o'zbek bolalar adabiyotiga singdirish, jumladan, bolalar nasrida ham modernistik obraz va detallar yaratishda milliy ohang uyg'unligini saqlab qolish ham Anvar Obidjon ijodiga xos tamoyildir. Adibning "Dahshatli Meshpolvon", "Meshpolvonning janglari" yoki "Alamazon va uning pidodalari", "Yaltiroq tugma" dilogik qissalari, shuningdek, "Oltin yurakli Avtobola" asari shu jihatdan o'zbek bolalar adabiyotida yangi voqelik hisoblanadi. Bu asarlardagi

**Tahil**

obrazlar ham shu kunning qahramonlari. Ular oddiy bola emas: "dahshatl Meshpolvon", "g'aroyib, olovqalb Alamazon" yoki temirtan Avtoboladir. Ular tinib-tinchimasaqina emas, ozodlik va haqiqat uchun, o'z erki va haq-huquqi uchun kurashuvchan, jasur hamda erkparvar bolalar. Adib shu sababli "Alamazon" turkumidagi qissalarini yosh avlodga, aniqrog'i "ona yurtning jasur farzandlariga" bag'ishlagan.

"Alamzon va uning piyodalari" qissasining bosh qahramoni Alamazon. U toshtaqaqliklar shevasida gurkirab yonayotgan gulxanni anglatadi. Alamazon yoshligidanoq kitobga mehr qo'yib, jahon bolalar adabiyotidagi tengdoshlari Chippolino, Buratino, Tom Soyer, Gek Finn, o'zbek xalq dostonlaridan Ravshanbek, Alpomish kabi qahramonlarni savodi chiqqandan buyon taniydi, u bu kitoblardan ta'sirlanib, do'sti Eshmat bilan xazina qidirib topish, topganda uni nimalarga sarflash haqida reja tuzadi. Eng avvalo, yaylov etagida o'n ming kishilik stadion, ko'p qavatli uy, marmar devorli kattakon choyxona qurish, qishloqlarida zamonaviy inshootlar barpo etish, hatto butun umri boshlang'ich sinflarga dars berish bilan o'tgan Ahmadali otaga atab terak bo'yiyaykal o'rnatmoqchi bo'ladi.

Yozuvchi garchi bu asarni 1976–78-yillarda yozgalligini qayd etsa ham asar mustaqillik yillarda kitobxonlarga taqdim etildi. Asarda bolalarni kitobxonlikka da'vat etish Alamazonning uyg'oq tafakkuri bilan ko'rsatib berilgan.

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Mungli ko'zlar", Tohir Malikning "Alvido bolalaik" qissalarini ham o'zbek bolalar adabiyotining bir asrlik tarixida butunlay yangi hodisa deya olamiz. O'zbek bolalar adabiyotida ham shu singari detektiv qissalar bo'y ko'rsata boshlagani, bunda asosiy e'tibor jinoyatni fosh qilishdan ko'ra bolalar va o'smirlar psixologiyasi tadqiqiga qaratilgani baayni adabiy yangilanish dalilidir.

Mustaqillik davri bolalar she'riyatining yangi obraz va mavzular bilan boyishida esa Tursunboy Adashboev ijodining alohida o'rni bor. Yetuk olim I.G'afurov ta'biri bilan aytganda, "Uning she'rlarida tog' yonbag'ridagi echkilari, kiyiklar o'zlarini qanday erkin tutsalar, so'zlar ham shu kiyikday javlon o'ynaydi... hech narsadan xavflanmaydi, qo'rquv tuymaydi"<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, shoirning "Tuproq" she'rida shunday misralar bor:

Ajdoddlardan meros bo'lib,  
Qolgan tuproq.  
Bobolarning qon va teri  
Tomgan tuproq.  
To'kin-sochin dasturxonni  
Solgan tuproq.  
Dori-darmon, sinovlardan  
Tolgan tuproq.  
Qotilni ham, botirni ham  
Sukut saqlab,  
Ehtiyyotlab, o'z bag'riga  
Olgan tuproq.  
Hech shubhasiz, bu satrlar istiqlol shabadalari

yelkasini silab turgan har bir o'g'il-qizga o'tmish va o'zligimizni, tarixiy qadriyatlar hamda haqiqatlarni yaxlit tasavvur etish, u haqidada mushohada yuritishga yordam beradi.

Safar Barnoyev ham XX asrning 90-yillari va XXI asr boshlarida alohida g'ayrat va shioatga to'lib ijod qildi. Shoirning aksariyat she'rlarida urush va inson taqdiri masalasini turli qirralardan yoritishga mayl kuchli:

*Asrim shoshirib qo'ydi  
Bugun inson aqlini.  
Bizlar unutdik tanish  
Uchburchak xat shaklini.  
Ammo unutmadiq, yo'q  
Sog'inchning dardlarini.  
Yer emas, qalbga ko'mdik  
Yurtimiz mardlarini.*

Istiqlol yillarida alifbo-she'rlarning ham rang-barang namunalari yaratildi.

"Alifbo-she'rlar odatda, – deb yozadi adabiyotshunoslar, – yangi alifbo qabul qilinishiga bevosita aloqadordir"<sup>2</sup>. Kavsar Turdiyeva ijodida mustaqillik yillarda alifbo-she'rlarning rang-barang namunasi yuzaga keldi. Shoira "Biz shunaqa bolamiz" she'rini "she'riy alifbo" deb ko'rsatadi.<sup>3</sup> Unda lotin alifbosidagi 29 harfning har biri bilan boshlanuvchi so'zlar alifbo tartibida she'riy vazn va qofiyaga solingenan. Masmuni esa aqli, besh baho oladigan, do'stlari ko'p va eli mustahkam, jajji botirlar, Vatanga qo'shganot bo'lgan eng ibratli avlod tilidan kuylanadi. Shoiraning "Sehrlı harflar oroli" she'rida esa harflar o'zini shunday tanishitiradi:

*Aa – Men "A"dirman, "A"dirman,  
Ko'p narsaga qodirman,  
"Qor", "Bol", so'zlarga qara:  
Yasadim "Qora, bola"<sup>4</sup>.*

Bu alifbo-she'lda har bir harfga bag'ishlangan misralar mustaqil kompozitsiyaga ega. Harflar alohida xususiyatlarini namoyon qilish bilan birga, o'zları ishtirok etgan so'zdan yangi so'z va ma'no yasashini isbot qiladilar. Birinchi harfning o'zi ta'kidlayotganidek, juda ko'p so'zlarda ishtrok etishi qor-qora, bol-bola so'zlaridagi ma'no farqlashi orqali oydinlashgan. Bunday she'rlarda ma'no, fikr yetakchilik qiladi. Har to'rt qator she'r shu tariqa, mustaqil qofiya va mazmunga ega bo'la borgan. K.Turdiyeva shu kabi ko'plab she'rlarida harflarni mustaqil harakatga keltiradi. Ulardan kichkin-toylar xarakteriga xos xususiyatlarni ochib berishda foydalanadi. Shoiraning "Manman "B", "Harflar adashdi", "Harflar o'yini", "Bitta harf qochsa-chi", "Harflar ketib qolsa", "Harflar ustaxonasi" kabi she'rlari ham shu tariqa ma'rifiy-badiiy ahamiyatga ega. Zero, alifbo-she'rlar endilikda harfiy san'atga asoslangan yangi she'riy shakllarga keng yo'l ochdi, desak yanglishmaymiz.

Dilshod Rajab she'rlarining mavzu mundarijasi rang-barang. Uning Vatan, yurt, Davlat ramzlar haqidagi she'rlari alohida turkumni tashkil etsa, "Baxshi bola – yaxshi bola", "Yaxshi va yomon", "Dehqon dasida" turkum she'rlari ham shakily, ham mazmunan

o'ziga xos. Shoirning "Ketmon", "O'roq", "Xaskash", "Belkurak", "Panshaxa" deb nomlangan to'ttliklari bolalar uchun mazmun mohiyatan e'tirofga loyiq.

Tinmay ishlar, yer chopar dehqon,  
To kechgacha, saharlab turib.  
"Dam oling" deb yolvorar ketmon,  
Oyog'iga har dam bosh urib.<sup>5</sup>

Ketmon nimaligini bugungi bolalarning ayrimlari bilmaydi. Ammo unda dehqon tinmay yer chopishini eshitgan. Dehqonning "oyog'iga bosh urishi"ni katta avlod kinoyaviy tushunsa, yosh avlod shaklan chiroyli o'xshatishdan zavq oladi. Chunki, mustaqillikgacha dehqon dam olmay ishlasa ham "kosasi oqargani yo'q". Shoир shunga shama qilmoqda. Biroq ketmonni har ko'tarib, yerga urgamizda, u rostdan ham oyog'imiz ostida boshi bilan tushadi va shoир o'xshatishini tasdiglaydi.

D.Rajabning ayrim she'rlari esa shaklan tuyuqqa hamohang, faqat 4-satri va vazniga ko'ra undan farqlanadi. Masalan, "Belkurak" she'rida shunday shakily va mazmuniy o'ziga xoslik ko'zga tashlanadi:

Dehqon bobo, doim tik-ku **belkuraging**,  
Lekin nechuk hol-ahvoling, **bel, kuraging?**  
Keng maydonga tushgan chayir polvon o'zing,  
Tolmagaysan, sira ko'rmas yer kuraging.<sup>6</sup>

Ta'kidlab ko'rsatilgan so'zlar shakl va talaffuzda bir xil bo'lgani bilan, ikki hodisani ifodalayotgani anglashiadi. Bu bolalar uchun aynan tanish manzara. Ular bu so'zlar o'tasida chindan ham bog'liqlik bor deb o'ylaydilar. Chunki, har birimiz ham bolaligimizda shunday o'ylaganmiz. O'sha dehqonning qo'lidagi belkurak o'zining beli va kuragiga o'xshashligiga ishonuvchan bolalar uchun yaxshi topilma bu. Kattalar esa, o'z navbatida, buning dardli mohiyatini ilg'ay oladilar. Chunki dehqon bobolarimiz bir umr belkurakda yer qazib, tuproq olib, bemalol egilish, qad rostlashga qiynaladigan bo'lib qoladilar. Shunday bo'lsa ham ular tolmasdan, polvonlarining kuragi yerga tegmasdan – yiqilmay-yengilmay dong taratganlarini shoир o'rini ta'kidlaydi.

D.Rajab she'riyatidagi shakliy izlanishlar hatto musavvirga xoslik ham kasb etadiki, bu adabiyotshunoslikda geometrik she'rlar deb yuritilmoqda. Shoirning o'zi ham bu turkumni "Musavvirning she'rlari" deb nomlangan. Jumladan, uning "Tanbeh" she'rida ham mazmunan, ham shaklan belkurakning musavvirona chizilgan tasvirini ko'rish mumkin:

To'plaganing bor-yo'g'i  
Ikki uyum xas-xashak.  
Darrov cho'zilib olib  
Yotganing ne, Xashxashak?  
Shuncha yerni ag'darib,  
O'tirmasdan yana, ko'r;  
Ishlayman, deb,

B

E

L

K

U

R

A

K

**T i k k a**

u	n
r	a
a	k
ro'	

Rasmida ham, mazmunda ham belkurakning tikka turgani shu tariqa chizilishi bola uchun ikki ma'noda muhim. Avvalo, u belkurakni hali ko'rмаган bo'lsa, rasmidan bilib oladi. Ikkinchidan, shu shakl – rasmga joylashtirilgan so'zni topib o'qish uchun ancha mehnat qiladi, so'zni to'g'ri o'qiy olsa, zavqi ortib boradi, demak, she'rdagi badiiy estetik zavq yoniga, mustaqil ijodiy topshiriqni bajarishdagi quvonch qo'shiladi.

Miraziz A'zamning 1988-yilda yozilgan "Qirq bolaga qirq savol" she'riy asari nomidanoq ma'lumki, u 40 ta she'riy savolni qamrab olgan. She'riy savollardan oldin boshlanma, keyin esa xotima she'r ham keltirilgan. Shoир unda jajji bolakaylarga roppa-rosa 40 ta savol bilan she'riy murojaat qiladi. Bilim va zakovat egasigina bu savollar mohiyatini to'g'ri ilg'aydi, ularga asosli javob topadi. Shoirlar bolalar va o'smirlarni shu tarzda ma'rifat dunyosiga olib kiradilar.

Umuman, istiqlol davri o'zbek bolalar adabiyotida shu singari ohorli tashbehlari, badiiy-tasviriy vositalardan foydalanish kuzatiladi, yangi obrazlar, motiv va g'oyadorlik, ifoda usullaridagi rang-baranglik tadriji yorqin ko'zga tashlanib kelmoqda. Bunda ayniqsa, S.Barnoyev, M.A'zam, T.Adashboyev, A.Obidjon singari bolalar shoirlarining noan'anaviy tur va shakklardan foydalanib ijod qilishlari, shu bilan birga H.Imonberdiyev, K.Turdiyeva, D.Rajab, A.Akbar kabi ijodkorlarning jarayon faollashuviga qo'shgan hissalarini alohida ta'kidlash bilan ular yaratgan badiiy ijod namunalari jahon bolalar adabiyoti bilan bo'ylasha olishini ham e'tirof etish joiz.

<sup>1</sup>Qarang: Beg'uborlik kuychisi. Maqlolar to'plami. – Toshkent: Navro'z, 2011. 54-bet.

<sup>2</sup>Barakayev R., Ashurov B. Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar. – Toshkent: Akademnashr, 2014. 104-bet.

<sup>3</sup>Turdiyeva K. Dunyonи saqlar bolalar. – Toshkent, 2012. 156-bet.

<sup>4</sup>O'sha joy. 157-bet.

<sup>5</sup>Dilshod Rajab. Tanish tovushlar. – Toshkent: Zarqalam, 2006. 11-bet.

<sup>6</sup>O'sha joy.

## TOHIR MALIK IJODIDA USLUBIY O'ZIGA XOSLIK

XX asr siyosati sharqona milliy adabiyotimiz va san'atimiz, urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz, diniy e'tiqodimiz va ma'naviy-axloqiy tarbiyamizni aftodahol vaziyatga solib qo'ygan. Istiqlolgacha bo'lgan davr va istiqlolning dastlabki yillarda yozuvchi Tohir Malik ushbu muammolar talqini bilan bog'liq qator asarlar yaratdi.

Tohir Malik ijodida uslubiy o'ziga xoslikni, xususan, "Ov" qissasi misolida kuzatamiz. "Ov" 1995-yilda yozilgan ilmiy-fantastik, sarguzasht qissadir.

Avvalo, uslub haqida. Uslub – g'oyaviy estetik xususiyatlar yig'indisi, tor ma'noda yozuvchining tasvir usuli, keng ma'noda uning dunyoqarashi, u yaratgan asarlarining asosini tashkil qiluvchi g'oyalar, sujet va xarakterlar doirasi, badiiy tasvir vositalari, tili va bosh-qalarni qamrab oladi. Muayyan oqimga nisbatan ham, yozuvchi ijodiga nisbatan ham uslub termini qo'llaniladi. Romantik uslub, realistik uslub kabi. Ko'pchilik hollarda uslub yozuvchining ijodiga nisbatan ishlatalidi. Ya'ni Chexov uslubi, Abdulla Qahhor uslubi, Oybek uslubi kabi. Bu ma'noda uslub bir yozuvchining ijodida, barcha asarlarida bo'rtib ko'rindigan g'oyaviy-badiiy xususiyatdir. Aniqrog'i, uslub yozuvchinig voqelikni aks ettirishdagi o'ziga xos yo'li, ifoda-tasvir vositalari, o'ziga xos obrazlari. Masalan, Oybek va Abdulla Qahhor prozasi uslub jihatidan bir-biridan jiddiy farq qiladi.

Oybek kishi portretini chizganda yoki tabiat manzarasining tasvirini berganda erinmasdan, tevarak-atrofning barcha ikir-chikirlarigacha qalamga olib mu-kammal polotno yaratishga intiladi. Oybek xalq hayotining muhim tarixiy bosqichlaridan mavzu tanlaydi. Shuning uchun Oybek qahramonlari lirik, romantik kayfiyatga ega bo'ladilar. Buni Gulnor, Yo'lchi, Navoiy, Arslonqul kabi obrazlarda ko'rish mumkin.

Abdulla Qahhor uslubi esa unday emas. U tasvirni ixcham, iboralarni esa lo'nda qilib beradi, tabiat manzaralarini chizganda, portret yaratganda shtrix usulini qo'llaydi. Narsa yoki hodisaning eng xarakterli tomonini tasvirlash orqali maqsadga erishadi. Qahhor asarlari satira va yumorga boyligi bilan ham xarakterlanadi. Qahhorga xos uslubiy xususiyatlarni, uning qator asarlari "Sarob", "Ayajonlarim", "Qo'shchinor chiroqlari", "Sinchalak"da ko'rish mumkin.<sup>1</sup>

Asar g'oyasi va mazmunini kitobxonaga tushunarli qilib yetkazishda badiiy obraz juda muhim ahamiyat kasb etadi. Obraz adabiyot va san'atda badiiy fikrlashing asosiy vositasi, g'oyaviy mazmunni ifoda etishning muhim formasidir. Shuning uchun M.Gorkiy obraz-

ning o'ziga xos xususiyati haqida gapirib, "Obraz fikrni uyushtirishning tejamli usuli"<sup>2</sup>, – degan edi.

"Ov" qissasini yozishda mualif ana shu usuldan mohirona foydalaniib, Rahmatulloh obrazini yaratgan.

Rahmatulloh – ismi jismiga monand, asarning mavzu va g'oyasiga mos, maqsad va vazifalari bilan mushtarak, yozuvchi dunyoqarashi va e'tiqodi bilan hamohang obraz. Uning o'rmondag'i yovvoyi mevanning no'xatdek keladigan danagidan o'zi yasab olgan donalarni o'girib tasbeh aytishi, eti ustixoniga yopishgan, qorachadan kelgan, botiq ko'zlarida qat'iyat zuhur bo'lgan, ko'zlar javdiramaydigan, qaddi egilmaydigan, qoramag'iz, qoramir yuzi yopishib turgan tasviri, boshliqning nafrat nazari bilan bergen savollariga kiprik qoqmay javob berishi portretning o'ziga xos xususiyatlarini va yozuvchining mahoratini ifoda etgan. Portretning bu xildagi tasviri kitobxonning asar voqealari rivoji bilan qiziqishini yanada ottiradi.

Rahmatulloh, boshliqning "Xudoga sig'inasanmi? Ibodat qilasanmi?" deb bergen savollariga:

– Ha , men yolg'iz Allohga sig'inaman. Men faqatgina omonatini o'ziga topshirganidan keyingina ibodatni qo'yaman, – deb javob beradi.

Boshliq "Tiz cho'ksin, uzrini qabul qilaman," deganida:

– Men banda oldida tiz cho'kmayman. Men faqat Allohning quliman, bandaga tavba qilmayman, – deb, tilmochlik qilgan Komissar til uchida "tavba qila qoling" deganda, "Men munofiqlik qila olmayman", deb javob berishi uning xarakteriga xos bo'lgan jihatlarni ko'rsatadi. Yozuvchi Rahmatulloh obrazi vositasida o'zining maqsad va niyatlarini to'la ro'yobga chiqara olgan. Rahmatulloh obrazining o'ziga xosligini quyidagi epizodda ham kuzatish mumkin.

Ertalabgacha muhlat: Xudo yo'q, deb, yozasan. Makkada hech qanday tosh yo'q, hammasi Muhammad degan savdogarning uydirmasi, Qur'on osmondan tushmagan, o'sha savdogar to'qib yozgan, deysan". Shularni yozsang – ozod bo'lasan , yozmasang – suyaklaring qamoqda chiriydi..."

Rahmatulloh bu buyruqni eshitib, o'z qulolqariga ishonmadi. Qon-qoniga singib ketgan haqiqatni rad etish, yozish u yoqda tursin, xayolga keltirishning o'ziyoq u uchun benihoya dahshatlil hol edi. U buyruqqa itoat etaymi yo yo'qmi, deb fikrlab ham ko'rmadi. Chunki shunday fikrlashning o'ziyoq imoniga darz ketkazar edi.